



INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY RAG'BATLANTIRISH USULLARI

PhD Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

Namangan davlat texnika universiteti

ORCID: 0000-0002-3765-5778

nbahriddinov@lincolnucsf.edu

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish usullari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Mazkur masala bo'yicha turli xil rag'batlantirish usullari o'rganilgan va ularni sanoat korxonalarida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan va baholangan. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirishning turli xil usullaridan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion faoliyat, rag'batlantirish, sanoat korxonalari, moliyaviy rag'bat, samaradorlik, xorijiy tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, globallashuv, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy infratuzilma.

МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СО СТОРОНЫ ГОСУДАРСТВА

PhD Бахриддинов Нодирбек Замиридинович

Наманганский государственный технический университет

Аннотация. В статье рассматриваются и анализируются методы финансового стимулирования инновационной деятельности промышленных предприятий со стороны государства. В связи с этим изучены различные методы стимулирования, определены и оценены возможности их использования на промышленных предприятиях. Разработаны предложения по использованию различных методов государственного финансового стимулирования инновационной деятельности.

Ключевые слова: инновационная деятельность, стимулы, промышленные предприятия, финансовые стимулы, эффективность, зарубежный опыт, социально-экономическое развитие, глобализация, экономический рост, социальная инфраструктура.

METHODS OF THE STATE FINANCIAL STIMULATION OF INNOVATIVE ACTIVITY

PhD Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich

Namangan State Technical University

Abstract. The article considers and analyzes the methods of state financial stimulation of innovative activities of industrial enterprises. Various methods of stimulation on this issue are studied and the possibilities of their use in industrial enterprises are identified and evaluated. Proposals are developed on the use of various methods of state financial stimulation of innovative activities.

Keywords: innovative activities, stimulation, industrial enterprises, financial stimulation, efficiency, foreign experience, socio-economic development, globalization, economic growth, social infrastructure.

Kirish.

Olib borilgan va o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning innovatsion rivojlanishi va innovatsion faolligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag'batlantirishning bosh xususiyati shundaki, unda soliq imtiyozlari ilmiy muassasalarga emas, balki korxonalarga va investorlarga qaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida hukumatlari xususiy biznesni ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashda faolroq ishtirok etishlariga erishishga intiladilar.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqot davomida yuqorida ta'kidlangan innovatsion faoliyatga oid dastlab keng ma'noda «Innovatsiya» atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Shumpeter (1982) tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» asarida taklif etilgan. Innovatsion nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to'la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo'yicha mutaxassis Druker (1993) innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya'ni «Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo'lib, uning yordamida g'oyalar va ixtirolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir» ishlab chiqdi.

Rus iqtisodchilaridan Anchishkinning (1986) fikriga ko'ra «innovatsiya», «yangilik kiritish» atamalari faqat texnik-texnologik o'zgarishlar bilan chegaralanishi mumkin emas. U ushbu atamaga keng ijtimoiy ma'no berib, yangiliklarni jamiyatni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rib chiqqan va texnik-texnologik yangiliklar muayyan iqtisodiy oqibatlarini keltirib chiqargan holda sotish bozori uchun kurashishga ko'maklashib, raqobat muhitini o'zgartiradi va bu bilan ijtimoiy rivojlanishga yordam beradi, deydi.

Yana bir ta'rif quyidagicha: «innovatsiya – bu jamiyat taraqqiyotining ta'siri ostida inson o'zgaruvchan ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun yangilik kiritish, yangiliklarni (yangi amaliy vositani) yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish jarayoni» deb ifodalanadi. Utkin (1996) esa innovatsiya (yangilik kiritish)ni amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot yoki kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan, avvalgisidan sifat jihatdan farq qiluvchi ob'yekt sifatida ta'riflaydi.

Ko'plab olimlar rivojlanayotgan iqtisodiyotda va umuman beqaror iqtisodiy vaziyatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish yanada maqbul, foydali va samarali ekanligiga qo'shiladilar. Xorij olimi L.E. Mindelining so'zlariga ko'ra, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bilvosita usullarining ahamiyati, birinchi navbatda, bilvosita rag'batlantirish to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga nisbatan sezilarli darajada past byudjet xarajatlarini talab qilishi va shu bilan birga u innovatsion sub'ektlarning ancha keng doirasini qamrab olishi bilan belgilanadi¹. Shuningdek Tugusheva va Yunyaeva (2011), bilvosita rag'batlantirish to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishga qaraganda ancha kam byudjet mablag'larini talab qilishini ta'kidlagan.

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita rag'batlantirish deb ataladigan chora-tadbirlarni chuqurroq tahlil qilgan N.Yu. Krivoruchko infratuzilma va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish sohasidagi chora-tadbirlarni bilvosita qo'llab-quvvatlash choralari sifatida tasniflaydi va Mindeli (2006) davlat innovatsion infratuzilmasini shakllantirishni bevosita qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari deb hisoblaydi.

Umuman olganda, keltirib o'tilgan mutaxassis olimlar tomonidan innovatsiya va innovatsion faoliyati ustida ish olib borilgan bo'lib, xo'jalik yurutuvchi korxonalarida innovatsion

¹ Jahon iqtisodiy forumi: rasmiy veb-sayt. Kirish rejimi: <http://www.weforum.org/>. (Kirish sanasi: 01/12/24).

faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish usullari mavzusi doirasida tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma'lumot manbalarini chuqur o'rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda inovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot metodolofiyasida ko'plab muammolar mavjud. Bulardan:

- Mehnat bozorida, xususan, AT sohasida yuqori malakali kadrlarning tanqisligi;
- Tadqiqotlarni moliyalashtirishda samarasiz tizimi tufayli moliyalashtirish hajmining qisqarishi;
- ixtirolarni tijoratlashtirishda moliyalashtirish manbalarining mavjudmasligi;
- innovatsion infratuzilma rivojlantirishning past darajasi (xususan, biznes inkubatorlar);
- davlatning biznes ishlariga aralashishi;
- telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanmaganligi;
- statistik ma'lumotlar bilan bog'liq muammolar;
- fundamental fan uyushmagan va jahon ilmiy jamiyatdan ajralgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bu muammolarni o'rganar ekanmiz, avvalombor qo'yidagi xulosalarni bayon etamiz:

- O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanishi dastlabki bosqichda, ko'rsatkichlarning ko'pchiligida O'zbekiston innovatsion rivojlanish bo'yicha yetakchi mamlakatlardan ancha orqadaligi;

- korxonalar umumiy sonida innovatsion korxonalarning ulushi kam (umumiy hajmining 0,85 foizi);²

- O'zbekiston Respublikasi yuqori texnologiyali va tadqiqotalab mahsulotlarning sof importchisi, ammo importning umumiy hajmida u faqat 6,2 foizni tashkil etadi;

- hukumatni tartibga solish hozirgi holati innovatsiyaviy faoliyatni rivojlantirishga yordam bermaydi - O'zbekiston Doing Business, Economic Freedom, Corruption Rercertion Index kabi xalqaro reytinglarda eng past o'rinlarga ega;

- fundamental fanning zaif rivojlanishi mavjud: O'zbekiston jahon tadqiqotlarning 0,02 foizini amalga oshiradi va ular dalil qilib keltirishda past ko'rsatkichlarida ega;

- olimlar va tadqiqotchilar ish bilan band aholining kichik qismini tashkil etadi (0,12%), ularning mutlaq soni ham kichkina - 16,7 ming kishi;

- intellektual mulkni himoya qilish muammolari ham ta'kidlandi.

Erishilgan natijalar yordamida har bosqichda innovatsion maqsadlar va intilishlar, ularga erishish vositalari o'zgarib borishi va aniqlashtirilishi mumkin. Albatta, bunda innovatsion faoliyatning bosh maqsadi avvalgisicha qoladi. Bu jarayon iteratsion (takrorlanuvchi) xarakterda.

Umumiy holda innovatsiyalar yaratishga undovchi sabablarni innovatsion faoliyatni zarur qilib qo'yuvchi, ichki sabablarga (masalan, mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini


² 1-инновацион корхона - янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот ёки хизматларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш, ишлаб чиқариш технологиялари ёки усуллари ва инновацион фаолиятнинг бошқа турларини ишлаб чиқариш мақсадида ташкил этилган инновацион фаолият субъекти. (Ўзбекистон Республикаси "Инновацион фаолият тўғрисида"ги Қонуни) Манбалар: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, World Bank, National Science Foundation (US), "Жаҳон ва миллий иқтисодиёт" даврий нашри, ишчи гуруҳининг таҳлили.

ta'minlab turish zaruriyati) va tashqi yani davlat iqtisodiy siyosati borasidagi sabablarga (davlatning moliyaviy imkoniyatlar va xom-ashyolardan foydalanish) bo'lish mumkin. Bu jarayonda korxonalarning o'zaro munosabatlari raqobat xarakterida yoki kooperatsiya xarakterida bo'lishi mumkin. Raqobatchilik innovatsion faoliyatning natijalari o'zlashtirilishida boshqalarga nisbatan ko'proq ulushga ega bo'lishga intilishda ifodalanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida raqobat munosabatlari obyektiv ravishda mavjud bo'lsada, innovatsion faoliyatda kooperatsiya munosabatlariga kirishish ham obektiv zarur va muqarrar tus oladi. Ayniqsa, murakkab innovatsion loyihalar amalga oshirilishida ham intellektual, ham mulkiy imkoniyatlarni birlashtirmasdan va jamlamasdan ko'zlanayotgan natijalarga erishib bo'lmaydi.

Korxonaning ichidagi innovatsion jarayonlarda raqobat munosabatlariga nisbatan kooperatsiya munosabatlari birligi va uyg'unligi mavjudligi bilan bog'liq ravishda shakllanadi. So'nggi 5 yil davomida innovatsion mahsulot va servislarni yaratish bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning jadal o'sishi ta'kidlandi (yillik o'sish sur'ati 63% tashkil qiladi) Korxonalar umumiy sonida innovatsion korxonalarning ulushi ortmoqda.

2021 yilda jahon rivojlangan davlatlardan ITTKI larga qilingan harajatlar AQShda 599 mlrd., Yaponiyada 144,3 mlrd., Germaniyada 97,1 mlrd., Buyuk Britaniyada 49,1 mlrd., Shvetsiyada 16,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich atiga 0,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, AQSh davlatiga nisbatan 5990 marta kam sarf qilingan (4-rasm).




1-rasm. Dunyo mamlakatlarida ITTKI moliyalashtirish

(Доклад о мировых инвестициях, 2021)


Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag'batlantirishning tahlili shuni korsatadiki davlat va innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning umumiy qabul qilingan tushunchalari: uchta (*OTM-korxona-davlat*) va uning rivojlanayotgan modifikatsiyasi hamda fan-ta'lim va ishlab chiqarish (fan-ta'lim-biznes-davlat-fuqarolik jamiyati institutlari) modelidir (2-rasm).

3-rasmda hududni rivojlantirishning innovatsion jarayoni va uning biznesga ta'sirida moliyalashtirishni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash uchun qarorlar qabul qilishda korxonalar o'z innovatsion takliflari bilan chiqishlari hudud rahbarlari esa uning samaradorlik jihatlariga alohida e'tibor qaratishlari hamda ularni ustuvor loyihalar reestrda e'tiborga olishlari kerak bo'ladi. Shunday qilib, bu yangi texnologiyalarni belgilaydigan bilim, ko'nikma va artefaktlarni yaratish, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan o'zaro bog'liq institutlar tizimi Yevropa Ittifoqi mamlakatlari innovatsion faoliyatni davlat tomonidan bevosita va bilvosita tartibga solish usullaridan keng foydalanmoqda.



2-rasm Sanoat korxonalar innovatsion faolligini oshirishning davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish tarmoqlararo hududiy mexanizmi
(Гаибназарова, 2014)


Jumladan, innovatsion faoliyatni bevosita tartibga solishda subsidiyalar, soliq imtiyozlari, byudjet ssudalari berish, grantlar ajratish, davlat shartnomalarini tuzish, inkubatorlar, ilmiy va texnologik parklar tashkil etish kabi usullardan keng foydalanilmoqda.



3-rasm. Sanoat korxonalarining innovatsion jarayoni biznesga ta'siri
Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Innovatsion faoliyatni bilvosita tartibga solishda esa maqsadli soliq imtiyozlari berish, jadallashtirilgan amortizatsiya qo'llash, kredit olganda soliqqa tortishni kamaytirish, dividendlardan olinadigan soliq stavkasini pasaytirish, innovatsion korxonalarni tashkil etish uchun davlat mulkini imtiyozli yoki qaytarib olmaslik sharti asosida berish, innovatsion

tavsifdagi yirik loyihalarda davlatning hissali ishtiroki shaklida qatnashish, venchurli moliyalashtirishni rag'batlantirish, davlat kafolatlarini taqdim etish kabi usullardan foydalanilmoqda (4-rasm).



4-rasm. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishdagi vositalar

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan.

Fikrimizcha, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining tajribasi asosida, innovatsion faoliyatni davlat orqali tartibga solishning bevosita va bilvosita usullaridan milliy iqtisodiyotda kompleks foydalanishni joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat va korxonalarning hissali ishtirok etishini ta'minlash, olinadigan dividendlarga nisbatan past darajadagi soliq stavkalarini qo'llash innovatsion loyihani investitsiyalash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taraqqiy etgan boshqa mamlakatlarda ham innovatsion investitsiyalashni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlaridan keng foydalaniladi.

Innovatsion jarayon doimiy ravishda bilim almashadigan, ularning oqimlarini boshqaradigan, ushbu bilimlarni yangi mahsulotlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish uchun tarqatadigan va qo'llaydigan turli xil vakolatlar va imkoniyatlarga ega Milliy Innovatsion Tizim MIT elementlari o'rtasidagi munosabatlarning murakkab tizimiga asoslanadi.

Xulosa va takliflar.

Davlatning innovatsion faoliyatni tartibga solish choralari ma'muriy va iqtisodiy metodlarga bo'lish mumkin. Ma'muriy aralashuv qonunchilikka tayangan holda amalga oshiriladi. Qonunchilik iqtisodiyot taraqqiyotining innovatsion yo'nalganligini barqaror saqlab turishga xizmat qiladi va yangiliklarga monopol egalik qilishni ta'minlaydi. Shunday bo'lsada,

innovatsion faoliyat rivojlanishida iqtisodiy omillarning rolini inkor etish mumkin emas. Unga davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy rag'batlantirish va moliyaviy ko'mak juda sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish xo'jalik yurutuvchi korxonalarining innovatsion rivojlanishida katta rol o'ynaydi, chunki bu soliq yukini yengillashtirish va moliyaviy resurslarni bo'shatish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Tugusheva V.R., Yunyaeva R.R. (2011) Agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni kreditlash uchun davlat imtiyozlari // Perm davlat pedagogika universitetining Izvestiya. V.G. Belinskiy. – No 24. – B. 469–474.

Zavlina P.N., Kazantseva A.K., Mindeli L.E. (2006) Innovatsiyalarni boshqarish asoslari / Ed Zavlina P.N., Kazantseva A.K., Mindeli L.E. – M.: "Iqtisodiyot", – 518 b.

Анчишкин А.И. (1986) Наука - техника - экономика. –М.: Экономика, - 35 с.

Гаубназарова З. (2014) Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини оширишнинг назарий асослари. Монография. Тошкент.

Доклад о мировых инвестициях (2021). Инвестиции в устойчивое восстановление. Обзор. 2021 год, Организация Объединенных Наций Женева, 2021.

Друкер П. (1993) Новый бизнес. –М.: Экономика.

Уткин Э.А., Морозова Г.И. (1996) Инновационный менеджмент. –М., Акалис, -208 с.

Шумпетер Й. (1982) «Теория экономического развития». – М., Прогресс, –455с.